BUXORO VILOYATI KOGON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 30 - oktabr 269-2-208-Q/23 Kogon shahar hokimligi

2024-yilda shahardagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-39-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Kogon shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining ish joylarining eng kam miqdorini band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma'qullansin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o‘rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 350 kishini tashkil etadigan 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz ota,

yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalar uchun 10,3 foiz (36 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar, 33,7 foiz (118 kishi);

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 37,1 foiz (130 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 7,1 foiz (25 kishi);

nogironlar uchun 3,1 foiz (11 kishi);

shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 0,3 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun 2,8 foiz (10 kishi);

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,3 foiz (1 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun shu jumladan kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar, kambag‘al oilaning ishsiz shaxslari uchun, og‘ir sharoitda yashovchi ayollar uchun, oliy ta'limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilar va mehnat muxojirlari 5,1 foiz (18 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta'minlasinlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga–har bir xodim uchun 12 oy

davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu qarorning ikkinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

6. Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.SHadiyev) qaror tasdiqlangan kundan boshlab bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e'tiboriga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlasin.

7. Mazkur qaror “Kogon Hayoti” gazetasida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

9. Qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

xokim **H.H.Davlatov**

Kogon shahar hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
269-2-208-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Korxona, tashkilot va muassasalarda kvotalangan ish o‘rinlari

Korxona, tashkilot va muassasalar nomi va tarmog‘i	Jami ishlovchilar soni	Band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining jami	Shundan								
			o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun	Safrbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolla kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlar uchun	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun shu jumladan kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar, kambag‘al oilaning ishsiz shaxslari uchun, og‘ir sharoitda yashovchi ayollar uchun, oliy ta'limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilar va mehnat muxojirlari uchun
2	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**
Paxta tozalash aksiyadorlik jamiyati	373	12	1	1	2	1	5				2
Kogon Yog‘ aksiyadorlik jamiyati	233	7	1	1	2	1	2				
Kogondonmaxsulotlari aksiyadorlik jamiyati	105	2			1		1				
Buxoro gips aksiyadorlik jamiyati	104	4	1	1	1	1					
Kogon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	257	14	6			1	2	1	2		2
Kogon shahar tibbiyot birlashmasi	937	22	2	10	10						
Buxoro-1 bekatidagi temir yo‘l kasalxonasi	244	5	1	1	3						
Kogon shahar davlat sanitariya epidimalogiya nazorat markazi	60	3	1	1	1						
"Muborakneftigazmontaj" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Trubodetall" unitar korxonasi	327	4	1			1			2		

Kogon Ellektromantajchi unitar korxonasi	153	2				1			1		
Buxoro mintaqaviy temir yo`l uzeli	650	30		10	12	5			2		1
Buxoro lokomativ deposi	782	20	2	7	8	2					1
Buxoro vagon deposi	888	20	3	6	8	2					1
17-son Yo`l mashinalar stansiyasi	700	15	2	2	5	2			1	1	2
Buxoro aloqa va ishorat masofasi	364	12	3	3	3	1					2
Buxoro temir yo`l masofasi	1025	29	2	11	12	2			1		1
Buxoro elektr bilan ta'minlash distansiyasi	426	12		4	5	1					2
Buxoroneftigazavtonakl aksiyadorlik jamiyati	95	2				1			1		
Buxoro birlashgan yoqilg'i moy omborlari xo'jaligi	106	5	1	1	1	1	1				
Buxoro 1 bekati temir yo`l ustaxonasi	580	10	3	3	1	1					2
Buxoro ixota daraxtlarini o`tqazish qo`riqlash masofasi	301	2	1								1
Kogon Magistral gaz qivurlari korxonasi	338	8	1	5	2						
Aksiyadorlik tijorat banki Xalq bank Buxoro viloyat Kogon filiali	56	2		1	1						
Aksiyadorlik tijorat banki Qishloq qurilish bank Buxoro viloyat Kogon filiali	72	2		1	1						
O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Buxoro viloyat bo`limi Kogon filliali	45	2		1	1						
Kogon shahar madaniyat va aholi dam olish markazi	33	2	1		1						
Kogon kasb hunar maktabi	112	4		2	2						
Buxoro Pedagogika instituning Akademik litseyi	30	2		2							

Kogon shahar maktabgacha va maktab ta'lim bo`limi	60	3		1	2						
Kogon shahar bolalar va o`smirlar sport maktabi	52	3	1	1	1						
Kogon shahar 2-son Bolalar musiqava san'at maktabi	99	4		2	2						
Kogon shahar Barkamol avlod bolalar markazi	32	2		1	1						
Kogon shahar 1-son umumta'lim maktab	61	3		2	1						
Kogon shahar 2-son umumta'lim maktab	47	2		1	1						
Kogon shahar 3-son umumta'lim maktab	109	4		2	2						
Kogon shahar 4-son umumta'lim maktab	91	3		1	2						
Kogon shahar 5-son umumta'lim maktab	98	2		1	1						
Kogon shahar 6-son umumta'lim maktab	89	2		1	1						
Kogon shahar 7-son umumta'lim maktab	135	5		3	2						
Kogon shahar 8-son umumta'lim maktab	138	6		3	3						
Kogon shahar 9-son umumta'lim maktab	172	5		2	3						
Kogon shahar 10-son umumta'lim maktab	126	5		2	3						
Kogon shahar 11-son umumta'lim maktab	53	2		1	1						
Kogon shahar ixtisoslashtirilgan maktab	53	2		1	1						
Kogon shahar 1-son maktabgacha ta'lim muassasasi	55	2		1	1						
Kogon shahar 2-son maktabgacha ta'lim muassasasi	27	1			1						
Kogon shahar 3-son maktabgacha ta'lim muassasasi	40	2		1	1						

Kogon shahar 4-son maktabgacha ta'lim muassasasi	58	2		1	1						
Kogon shahar 5-son maktabgacha ta'lim muassasasi	67	2		1	1						
Kogon shahar 6-son maktabgacha ta'lim muassasasi	42	2		1	1						
Kogon shahar 7-son maktabgacha ta'lim muassasasi	34	1			1						
Kogon shahar 8-son maktabgacha ta'lim muassasasi	44	2		1	1						
Kogon shahar 9-son maktabgacha ta'lim muassasasi	46	2		1	1						
Kogon shahar 11-son maktabgacha ta'lim muassasasi	53	2		1	1						
Kogon shahar 12-son maktabgacha ta'lim muassasasi	95	4		2	2						
Kogon shahar 13-son maktabgacha ta'lim muassasasi	55	2		1	1						
Kogon shahar 14-son maktabgacha ta'lim muassasasi	89	3		2	1						
Kogon shahar 15-son maktabgacha ta'lim muassasasi	82	2		1	1						
Kogon shahar 16-son maktabgacha ta'lim muassasasi	58	2		1	1						
Kogon shahar 17-son maktabgacha ta'lim muassasasi	57	2		1	1						
Kogon shahar 18-son maktabgacha ta'lim muassasasi	54	2		1	1						
Kogon shahar 10-son maktabgacha ta'lim muassasasi	35	2		1	1						
Buxoro yo`lovchilarni tashishni tashkil etish filliali (temir yo`l vokzali)	176	6	2	1	1	1					1
JAMI	**11978**	**350**	**36**	**118**	**130**	**25**	**11**	**1**	**10**	**1**	**18**